

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 26-fevral № 3 (1564)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

Sanoat korxonalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlash barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

2 ➔

METALLURGIYA BESHIGI

Po'lat tayyor bo'lgach katta cho'michli kovsh pech yoniga keltirildi. Qaynoq eritma shovullab oqib tushar ekan, butun sex yog'duga to'ldi.

3 ➔

XULOSADA SHOSHMANGI!

Shoshqaloqlik bilan xulosa chiqarish, har bir voqeani to'liq anglamay turib baholash nohaqlikka sabab bo'lishi mumkin.

4 ➔

5-MART KUNI "O'ZMETKOMBINAT"
ISHGA TUSHGANLIGIGA 82 YIL TO'LADI

BEKOBOD – MILLIY METALLURGIYA BESHIGI



1942-yilning kuzi. Urush yillarining og'ir sharoitiga qaramay, Bekobodda yangi metallurgiya korxonasini barpo etish ishlari boshlandi. Qurilish boshlanishi munosabati bilan respublika va ittifoq darajasidagi mas'ullar hududga tashrif buyurdilar. Ular safida O'zbekiston rahbari Usmon Yusupov ham bo'lib, u zavod poydevoriga ramziy ilk qoziq qoqib, ishlarni boshlab berdi.


Yangi zavod qurilishida turli viloyatlardan kelgan quruvchilar, muhandislar va ishchilar kecha-kunduz mehnat qildilar. Shu bilan birga, 800 nafar yoshlar metallurgiya sir-larini o'rganish uchun Ural va Sibirdagi yirik sanoat korxo-nalariga yuborildi. Ular tajriba orttirib, yangi zavodning ilk mutaxassislariga aylandilar.

Qurilish jarayoni jadal kechdi. Eng muhim bosqich Marten sexini ishga tayyorlash edi. Uskunalar o'rnatil-ib, ishlab chiqarish maydonlari tayyor holga keltirildi. Nihoyat, birinchi po'latni olish kuni yaqinlashdi.

1944-yil 5-mart – mamlakat sanoati tarixida unutil-mas sana. Tun bo'yi zavod hududida hayajon hukm surdi. Hamma birinchi o'zbek po'lat eritmasini o'z ko'zi bilan ko'rishni istardi. Pech atrofida Uraldan kelgan tajribali us-talar va mahalliy yordamchilar yelkadosh bo'lib turishar-di. Xomashyolar – temir parchalari, ohak, koks va cho'yan oldindan tayyorlab qo'yilgan edi.

Pech ustasi Mixail Shelevanov xomashyo tashlanadi-gan darchalarni ochdi. Shu zahotiyoq shixta pechga tash-lana boshlandi. Qirq nafar ishchi bir soat ichida 30 tonna xomashyoni pechga joylashtirdi. Olov kuchaytirildi va ulkan pech gurillab ishga tushdi.

(Davomi 3-sahifada).



AYOL BORKI, OLAM MUNAVVAR

MEHNATLARI ALOHIDA TAHSINGA SAZOVOR

8-mart – xotin-qizlarga hurmat va ehtirom ramzi sifatida keng nishon-lanadigan bayramdir. Ushbu sana ilk bor XX asr boshlarida xotin-qizlar-ni huquq va manfaatlarini himoya qilish g'oyasi bilan bog'liq holda ilgari surilgan. Bayram tashabbuskorlaridan biri sifatida nemis jamoat arbobi Klara Tsetkin nomi tarix sahifalarida alohida o'rin tutadi. Keyinchalik 8-mart sanasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram sifatida e'tirof etildi.

Bugungi kunda 8-mart nafaqat xotin-qizlarning huquq va erkinlikla-rini e'tirof etish, balki ularning jami-yat taraqqiyotiga qo'shayotgan ulkan hissasini qadrlash kunidir. Ayniqsa, sanoat sohasida, jumladan metallur-giya tarmog'ida mehnat qilayotgan ayollarimizning fidokorona mehnati alohida tahsinga sazovor.

Metallurgiya – matonat, bilim va yuksak mas'uliyat talab etadigan murakkab soha. Bugun kombinatimiz-

da turli lavozimlarda samarali mehnat qilayotgan xotin-qizlar ishlab chiqar-ish jarayonlarida, laboratoriyalar-da, muhandislik-texnik xizmatlarida, boshqaruv tizimida o'z bilim va salo-hiyati bilan korxona rivojiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Shu bilan birga, ayol – oila tayanchi, mehr va muhabbat timsolidir. Ishda malakali mutaxassis, uyda esa mehri-bon ona va rafiqa sifatida ular jamiyat barqarorligi va kelajagi uchun xizmat qiladilar.

Aziz va muhtaram ayollar!

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan samimiy mubo-rakbod etamiz. Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, omad, ish faoli-yatingizda ulkan yutuqlar va yuksak marralar tilaymiz.



AKSIYADORLAR KENGASHIB OLISHDI

Metallurglar madaniyat saroyida “O‘zmetkombinat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishga Kuzatuv kengashi a‘zosi Bobir Karimov Zoom platformasi orqali raislik qildi. Unda “O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktor Bahodir Abdullayev hamda kombinatning rahbar va yetakchi mutaxassislari hamda bir guruh aksiyadorlar ishtirok etishdi.

Yig‘ilishda qator masalalar ko‘rildi. Jumladan, aksiyadorlarning yig‘ilishi reglamentini va sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash, korxonaning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish qarori bilan ma‘qullangan yirik bitim shartlariga o‘zgartirish kiritish kabi masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, boshqa tashkiliy-huquqiy masalalar ham ko‘rib chiqildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli ma‘ruzalar tinglandi hamda aksiyadorlar tomonidan bildirilgan taklif va savollar atroflicha muhokama qilindi. Kombinatarahbariyati tomonidan barcha savollarga asoslantirilgan va batafsil javoblar berildi.

Yig‘ilish yakuniga ko‘ra kun tartibidagi barcha masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda tegishli qarorlar qabul qilindi.

Navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish korxonaning barqaror faoliyatini ta‘minlash hamda boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim tashkiliy-huquqiy qarorlar qabul qilinishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.



FIRIBGARLIKKA CHEK QO‘YILDI

Yaqinda “O‘zmetkombinat” AJ hududiga olib kirilgan metall parchalari orasida firibgarlik yo‘li bilan aralashtirilgan beton bo‘laklari aniqlandi. O‘tkazilgan o‘rganishlar jarayonida ma‘lum bo‘lishicha, metall sifatida topshirilgan yuk tarkibiga begona materiallar qo‘shish orqali noqonuniy manfaat ko‘zlangan.

Biroq kombinat xodimlarining hushyorligi, tezkor harakati hamda o‘z vazifasiga sidqidildan yondashuvi natijasida ushbu urinishning oldi olindi.

Shu munosabat bilan o‘tkazilgan tadbirda firibgarlik holatini aniqlashda faol ishtirok etgan xodimlar munosib rag‘bat-

lantirildi. Ularga mukofot pullari Boshqaruv raisi – Bosh direktor Bahodir Abdullayev tomonidan tantanali ravishda topshirildi.

Tadbirda halollik va qonuniylik har qanday ishlab chiqarish jarayonining asosiy mezoni ekani alohida ta‘kidlandi.

Rahbariyat tomonidan xodimlarning korxona taqdiriga daxldorlik hissi yuqori baholandi. Shuningdek, kelgusida ham bunday hushyorlik va sadoqat kombinat faoliyati samaradorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Odil RAVSHANOV.

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI

SAMARALI BOSHQARUVGA TAHDID

Metallurgiya sohasidagi yirik korxonalar faoliyatida ochiqlik, adolat va mas‘uliyat tamoyillariga amal qilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini yuksaltirish bilan bir qatorda, boshqaruv jarayonlarining shaffofligi ham barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shaffoflik bo‘lmagan joylarda avvalambor manfaatlar to‘qnashuvi paydo bo‘ladi. Manfaatlar to‘qnashuvi shaxsiy manfaatlarining xizmat vazifalariga ta‘sir qilishi natijasida davlat va jamiyatga zarar yetkazib, bevosita korrupsiyaga olib keladi. Bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishchi-xodim unga qarshi murosasiz kurashishi shart.

Yirik metallurgiya kombinatida har bir qaror moliyaviy natijalarga, ishlab chiqarish samaradorligiga va minglab xodimlar manfaatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tender va xarid jarayonlari, pudratchi tashkilotlar bilan hamkorlik, kadrlar siyosati, lavozimga tayinlash va rag‘batlantirish masalalarida adolatli yondashuv ustuvor bo‘lishi shart. Shaxsiy munosabatlar yoki tashqi ta‘sir-lar xizmat vazifalaridan ustun kelishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Bunday holatlar nafaqat iqtisodiy yo‘qotishlarga, balki jamoa o‘rtasida ishonch pasayishiga ham

sabab bo‘lishi mumkin.

Korxonada ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish, xarid va tanlov jarayonlarini raqamlashtirish, barcha kelishuvlarni aniq me‘yorlar asosida amalga oshirish samarali boshqaruvning muhim qismidir. Elektron platformalardan foydalanish, hujjat aylanishini tartibga solish va ochiq axborot siyosati orqali turli xavf omillarini kamaytirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlaydi.

Har bir rahbar va mutaxassis o‘z faoliyatida kasbiy etika qoidalariga qat‘iy rioya qilishi zarur. Qaror qabul qilishda xolislik, xizmat manfaatlarini ustuvor qo‘yish va jamoa oldidagi mas‘uliyatni his etish muhim ahamiyatga ega. Agar muayyan vaziyat shaxsiy aloqalar yoki manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday holatni ochiq bayon qilish va tegishli tartibda ko‘rib chiqish sog‘lom ish muhitini saqlashga xizmat qiladi.

Metallurgiya kombinatining barqaror rivoji, xalqaro bozordagi nufuzi va ichki ishonch muhiti, avvalo, halollik va shaffoflikka bog‘liq. Manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish orqali biz korxonamizda sog‘lom ish muhitini yaratamiz, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilamiz.

Asror TURABOYEV,

“O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisining moliya-iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari.

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI – DAVR TALABI

Bugungi kunda ekologiya masalasi butun dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Atrof-muhit musaffoligini saqlash, atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish har bir korxona va tashkilot oldida turgan muhim vazifadir. Ayniqsa, sanoat korxonalari faoliyatida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

TABIATNI ASRASH – BURCHIMIZ

Keyingi yillarda Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasining gaz-chang tozalash qurilmasi samaradorligi pasayib, atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani bekobodliklarning asosli noroziliklariga sabab bo‘lib kelayotgan edi. Bu masala jamoatchilik e‘tiborida bo‘lib, uni tizimli hal etish zarurati tug‘ilgan.

Joriy yildan boshlab kombinatda mazkur muammoni bartaraf etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar rejaga kiritildi. Xususan, “O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvining “2026-yilda po‘lat va tayyor prokat ishlab chiqarish rejasini ijrosini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1-sonli buyrug‘ida ushbu yo‘nalish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Buyruqning 1-ilovasi – “Mahsulot sifatini oshirish bo‘yicha va tashkiliy-texnik tadbirlar rejasiga” muvofiq, “DSP-100 UMK” agregatining gaz so‘ndirish traktini modernizatsiya va rekonstruksiya qilishning III bosqichi joriy yilda amalga oshirish belgilangan.

Shuningdek, Boshqaruvning “Atmosfera havosi, suv obyektlarini, o‘simlik dunyosi va yer resurslarini muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3-sonli buyrug‘ida ham Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasining gaz-chang tozalash qur-

ilmasini to‘liq soz holatga keltirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Atrof-muhitga chang tarqalishining oldini olish maqsadida bo‘linmada “DSP-100 UMK” pechining gaz chiqish yo‘lidagi chang to‘planish bunkerini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Bu esa chang zarrachalarini ushlab qolish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, atmosfera havosiga tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini belgilangan me‘yordan oshirmaslik maqsadida 6 ming dona chang tozalovchi filtr yenglarini almashtirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, chang-gaz tozalash uskunasini tarkibidagi 3 dona tutun so‘rgichni yangisiga almashtirish ishlari ham amalga oshiriladi.

Mazkur chora-tadbirlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlash, aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Abdumalik HAYDAROV.




(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ertasi kuni Toshkentdan maxsus poyezdda ko'plab mehmonlar – ishchilar, muhandislar, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar va respublika rahbarlari tashrif buyurdilar. Zavod hovlisida minglab odamlar ishtirokida tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Qurilish boshlig'i Shamet Aytmetov quruvchilarning fidokorona mehnati va marten pechini ishga tayyorligi haqida so'zladi. Hovli "Ura!" sadolari va qarsaklardan larzaga keldi.

Kechki soat 18.55. Marten sexi boshlig'i Mixail Grigoryev-ich Kostyanoy ko'ziga ko'k oynani tutib qaynayotgan pechning ichiga qaradi. Urallik po'lat erituvchilar E.G. Lukyanchenko, E.G. Mayshev, yordamchilari Erali Jaxayev va Azim Ahmedov oxirgi topshiriqlarni bajarishdi.

Po'lat tayyor bo'lgach katta cho'michli kovsh



BEKOBOD – MILLIY METALLURGIYA BESHIGI

pech yoniga keltirildi. Qaynoq eritma shovullab oqib tushar ekan, butun sex yog'duga to'ldi. Shu tariqa yangi zavodda ilk o'zbek po'lati quyildi. Ukrainalik va urallik tajribali po'lat erituvchi-

lar qatorida Hofiz G'aniyev, Anvar Toshpo'latov, Ibrohim Husnitdinov, Abdu-rahim Ortiqov, Tojiali Akbarov, Tojiboy Mirzayev, Chingiz Mahmudov, Ahmed Ataulin, Obidjon Hojimatov, Yedige Kulmirzin, Olim Mirzayev singari mahalliy yigitlar birinchi o'zbek po'latini olishda ishtirok etdilar. Ular marten pechini ilk "qaldirg'ochlari" sifatida tarixda qoldilar.

Shundan buyon zavod to'xtovsiz faoliyat yuritib kelmoqda. Yillar o'tishi bilan ishlab chiqarish quvvati ortib, texnologiyalar yangilandi, korxona yanada kengaydi.

Birinchi po'latni quygan avlodning fidokorona mehnati bugungi kun uchun ham katta ibratdir. Ularning jasorati va

kasbiy mahorati tufayli yurtimizda metallurgiya sohasi mustahkam poydevorga ega bo'ldi.

Ismat DIYOROV.

BIRINCHI O'ZBEK PO'LATI ERITUVCHISI, MEHNAT QAHRAMONI HOFIZ G'ANIYEV

XALQ QALBIDA O'CHMAS IZ QOLDIRDI

Agar hayot bo'lganlarida, yurtimizning fidoyi farzandi, mashhur metallurg Hofiz G'aniyev joriy yilning 3-mart kuni muborak 100 yoshni qarshi olgan bo'lar edi. U kishining ibratli hayot yo'li, mehnatdagi jasorati va insonparvarlik fazilatlarini bugun ham ko'pchilik uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Mehnatda toblangan

Toshkent shahrida tug'ilib voyaga yetgan Hofiz G'aniyev 1943-yilda tengdoshlari qatori harbiy komissariat va viloyat komsomol qo'mitasi tomonidan Bekobod shahriga – metallurgiya zavodi qurilishiga safarbar etiladi. Urush yillarining og'ir sharoitiga qaramay, yurt taraqqiyoti uchun bel bog'lagan yoshlar safida u ham fidokorona mehnat qildi.



Keyinchalik bir guruh iqtidorli yoshlar metallurgiya kasblarini o'rganish uchun Ural sanoat korxonalariga yuboriladi. Ular orasida bo'lgan Hofiz G'aniyev po'lat erituvchi kasbini puxta egallab, zavodning Marten sexiga ishga qabul qilinadi. 1944-yil 5-mart kuni Marten sexida birinchi o'zbek po'lati eritilishida

ishtirok etib, tarixiy voqeaga o'z hissasini qo'shadi.

Yuksak e'tirof

Mehnatga sadoqat, ustozlar nasihati va kasbga bo'lgan mehr o'z samarasini berdi. Intiluvchanligi va mehnatsevarligi tufayli Hofiz G'aniyev jamoasi orasida obro'-e'tibor qozondi. 1958-yilda u eng yuksak mukofot – "Mehnat Qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldi. Bu e'tirof nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki butun metallurglar jamoasining mehnatiga berilgan yuksak baho edi.

Faol jamoatchi

Keyinchalik zavod kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi lavozimida ishlab, ishchi-xodimlarning manfaatlarini himoya qildi. Oddiy, haqiqatgo'y va kamtar inson sifatida u doimo odamlardagi insoniy fazilatlarini qadrlardi, yordamga muhtojlarga ko'mak berishni o'z burchi deb bilardi.

Hofiz G'aniyev nafaqaga chiqqanidan keyin ham uyda bekor o'tirishni istamadi. Zavod tarixi muzeyini tashkil etishda faol qatnashib, hujjatlar, suratlar va tarixiy materiallarni to'plashda jonbozlik ko'rsatdi. Uning tashabbusi bilan bolalar xiyoboni barpo etildi va keyinchalik bu bog'ga Hofiz G'aniyev nomi berildi.

Halollik – hayot mezon

Kombinat direktori Rixsiyov Yusupov bir kuni uni



bozor raisi lavozimiga taklif etganida, Hofiz aka qat'iy javob beradi: "Men halol yeb o'rganganman, bozorda ishlamayman, u yer menga to'g'ri kelmaydi". Bu javob uning butun hayot falsafasini ifoda etardi. U farzandlariga hamisha: "Halol rizq yenglar, birovning haqini yemanglar, kim yordam so'rab kelsa, albatta yordam beringlar", deb nasihat qilardi.

Rafiqasi Roza Mixaylovna bilan birgalikda 6 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdilar. Oilaparvar, yurtparvar, mehnatsevar inson sifatida Hofiz G'aniyev nafaqat zavod tarixida, balki xalq qalbida ham o'chmas iz qoldirdi.

Ibrat maktabi

Birinchi o'zbek po'lati erituvchisi bo'lgan Hofiz G'aniyevning mehnat yo'li bugungi va kelajak avlod metallurglari uchun haqiqiy ibrat maktabidir. Uning hayoti – halol mehnat, sadoqat va insoniylik fazilatlarining yorqin namunasidir.

"O'zmetkombinat" AJ mehnat faxriylari.

Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlikni ta'minlash, yong'in va texnogen holatlarning oldini olish, xodimlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda "O'zmetkombinat" AJ Obyektlarida Favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan tizimli profilaktik tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

QOIDALARGA AMAL QILING!

XAVFSIZLIK – USTUVOR VAZIFA

Navbatdagi uchrashuv "Bekobod Kislorod ishlab chiqarish korxonasi" MCHJ hamda "Bekobod Rangli metallar ishlab chiqarish korxonasi" MCHJ ishchi-xodimlari ishtirokida o'tkazildi. Tadbirda ish joylarida va maishiy hayotda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish, portlash xavfi mavjud yuklarni transportirovka qilishda xavfsizlik talablarini bajarish masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Tadbirda ishchi-xodimlar e'tibori so'nggi vaqtlarda turmushda tabiiy gaz va havo aralashmasining chaqnashi, is gazidan zaharlanish holatlari, shuningdek, yirik savdo majmualarida sodir bo'lgan yong'inlar misolida xavfsizlik qoidalariga beparvolik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga qaratildi.

Shu bilan birga, yog'ingarchilik mavsumlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sel va suv toshqinlari paytida to'g'ri harakat qilish, o'zini va yaqinlarini himoyalash bo'yicha amaliy tavsiyalar va yo'riqnomalar berildi.

Bu kabi profilaktik tadbirlar kombinat tizimidagi barcha korxona va bo'linmalarda izchil davom ettiriladi. Zero, xavfsizlikka rioya etish har bir xodimning shaxsiy mas'uliyati va barqaror ish faoliyatining muhim shartidir.

Adham HAMDAMOV,
"O'zmetkombinat" AJ Obyektlarida
Favqulodda vaziyatlar bo'limi
boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik.

METALLURGLAR IJODIDAN

XULOSA QILISHGA SHOSHMAN!

Yosh yigit kechqurun ishdan chiqib, Bekobod shahri bozorida singlisini kutib turardi. Bozor gavjum, har kim o'z tashvishi bilan band. Yigit telefonga qarab, vaqti-vaqti bilan atrofga nazar tashlardi.

Shunda u bir necha qadam narida turgan ayolni payqab qoldi. Ayol qo'lida sumka, yelkasida qimmatbaho sharf bilan kimnidir kutayotgandek bezovta edi. Yigitning nazari beixtiyor unga tushdi, chunki ayolning ortida shubhali harakat qilayotgan bir kishi bor edi.

Qora kiyimli o'sha kimsa ayolga yaqinlashib, uning sumkasiga ko'z tashlayotganini yigit ilg'ab qoldi. Yigit bir necha soniya ikkilanib turdi-da, shitob bilan ular tomon yurdi. Bu harakatni ko'rgan ayol esa baqirib yubordi.

– Nima kerak sizga? – deb u dag'dag'a bilan yigitni sumkasi bilan urdi.

Bir zumda ular atrofida odamlar to'plan-di. Qora kiyimli kishi esa vaziyatdan foydalanib, odamlar orasida g'oyib bo'ldi.

– Opajon, sumkangizga ehtiyot bo'ling, – dedi yigit. – Orqangizdagi odam sumkan-

gizdan nimadir olmoqchi bo'ldi.

Ayol bir zumga to'xtab, ortiga qaradi. Ammo haligi kishi allaqachon odamlar orasida g'oyib bo'lgandi. Kimdir yigitni bezori deb o'yladi, kimdir ayolni haq deb bildi.

Oradan ko'p o'tmay bozor qo'riqchisi keldi. Kuzatuv kameralari tekshirilganda esa, haqiqat oydinlashdi: yigit rostdan ham ayolni ogohlantirmoqchi bo'lgan, haligi kimsa esa avval ham o'g'rilikka uringan shaxs ekani ma'lum bo'ldi.

Ayolning yuzi qizardi. U yigitdan uzr so'radi.

– Men sizni noto'g'ri tushunibman, – dedi u hijolat bilan.

Yigit esa jilmaydi:

– Hechqisi yo'q. Ba'zan vaziyat ko'ringanidek bo'lmaydi.

Hayotda har bir holatning ko'rinmas tomoni bor. Shoshqaloqlik bilan xulosa chiqarish – nohaq ayblashga sabab bo'lishi mumkin. Har bir voqeani to'liq anglamay turib baholash adolatdan emas.

Diyor ZULFIQOROV.



HIKMATLAR XAZINASIDAN

Sog'lom ona, sog'lom bola - buyuk mamlakatning kelajagidir.

Shafolat ko'rmoqchi bo'lsang, do'st bo'l Ollohning do'stiga, jannati bo'lmoqchi bo'lsang, yot onangning oyoqlari ostiga.

Onalar bilan boshqalarning orasidagi farq shuki, boshqalar yaqinlarini mahzun holda ko'rmaslikni orzu qiladilar. Ammo onalar farzandlaridagi mahzunlikni o'zlariga olishni orzu qiladi.

SO'RAGAN EDINGIZ

TOVON PULI KIMDAN UNDIRILADI?

Xodim sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinib, shu asosda ishdan bo'shatilgan, keyin esa oqlangan bo'lsa, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni kim qoplaydi?

A. Sanjarov.

– Bunday holatda zararni qoplash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Mehnat kodeksining 174-moddasiga ko'ra, moddiy zarar – ishlamay qolgan davr uchun ish haqi, ma'naviy zarar esa obro'sizlanish va ruhiy iztirob bilan bog'liq bo'ladi.

Ishdan bo'shatish ish beruvchi xatosi bilan emas, balki keyinchalik asossiz deb topilgan tergov va sud organlari qarorlari bilan bog'liq bo'lganligi sababli, oqlov hukmi xodimga topshirilgunga qadar bo'lgan zarar ish beruvchi tomonidan qoplanmaydi. Jinoyat-protsessual

kodeksining 304–313-moddalariga asosan, bu davrdagi moddiy va ma'naviy zarar davlat tomonidan qoplanadi.

Oqlov hukmi ish beruvchiga taqdim etilgandan so'ng xodimni ishga tiklash majburiyati ish beruvchi zimmasiga o'tadi. Agar ish beruvchi oqlovdan so'ng xodimni ishga tiklamasa yoki kechiktirsa, shu davrdagi zararni xodim sud orqali ish beruvchidan undirish huquqiga ega.

Inomjon ESHONQULOV, huquqshunos.

QADRIYATLAR
“LAYK”LARDA EMAS

(Maqolalarimiz aks-sadosi)

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ko'pchilik videorolik yoki postning ahamiyatini uning necha marta ko'rilgani, qancha “layk” to'plagani orqali baholaydi. Afsuski, bunday mezon insonni asta-sekin maqtanchoqlikka, hatto kibrga yetaklashi mumkin.

Ayrimlar ko'proq e'tibor va “layk” to'plash ilinjida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga zid mavzularni ham piar vositasiga aylantirmoqda. Shu yil “Metallurg minbari” gazetasining 2-sonida e'lon qilingan “Piar maqtanchoqlikka aylanmayaptimi?” sarlavhali maqolada ana shu dolzarb masala atroflicha va haqqoniy tahlil etildi. Unda shaxsiy obro' orttirish, “men qildim” degan tasavvurni uyg'otish, yaxshilikni ko'z-ko'z qilish, ovqatlanish-u dam olishlarini ham uyalmay ko'rsatish, odamlarga tanilishga intilish kabi holatlar zamonaviy maqtanchoqlik ko'rinishi ekani ta'kidlanadi. Mazkur maqola hayotiy misollar hamda diniy qarashlar asosida piar va maqtanchoqlik o'rtasidagi farqni ochib berib, o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

Oilaviy muammolarni internetga olib chiqish, shaxsiy baxt, qayg'u va g'amlarni ommaga namoyish etish ham ko'p hollarda mashhurlikka intilish bilan bog'liq. Bunday holatlar esa insoniylik va kamtarlik kabi fazilatlarini susaytirib, ma'naviy qadriyatlarimizni zaiflash-tirishi mumkin.

Maqolada har bir inson piar bilan maqtanchoqlik o'rtasidagi farqni anglab yetishi zarurligi uqtiriladi. Niyat to'g'ri bo'lsa, amal kamtarlik va samimiyat bilan bajarilsa, haqiqiy qadriyatlar saqlanadi. Baxt, qayg'u va muammolarni internet orqali obro' orttirish, tanilish vositasiga aylantirish esa to'g'ri emas.

Haqiqiy obro' va qadriyatlar “layk”larda emas, balki insonning kamtarligi, xolis niyati va samimiy amallari-da namoyon bo'ladi.

Hasanboy SHOKIROV.

LATIFALAR...

– Nega sen doim o'zing bilan o'zing gaplashasan?

– Aqlli odam bilan gaplashishni yaxshi ko'raman.

– Tong saharda soatning qo'ng'irog'i menga xuddi o'q otilgandek ta'sir qiladi.

– Shunda sakrab turib ketsang kerak?

– Yo'q! Xuddi halok bo'lgandek yotaveraman.

Xotin eriga dedi:

– Ishonasizmi, avtobusda bir emas, ikkita erkak menga joy bo'shatdi-ya!

– Sig'dingmi ishqilib?

Shifokor huzuriga kelgan bemordan so'radi:

– Aroq ichasizmi?

– Rahmat, doktor. Hozir to'yib ichib kelayapman.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O'zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron variantda
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.